

**ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR RUHIY
RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI***Nuriddinova Sarvinoz G'olibbek qizi**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**Special pedagogy fakulteti talabasi**vaziranuriddinova0@gmail.com**+998908240550*

Annotatsiya. Ushbu maqola eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiyatidagi muammolar, psixologik korreksiyasi va diagnostikasi, shu bilan birga tashqi-ichki nutqi va bilish jarayonlarining o'ziga xosligi, ular shaxsining rivojlanish xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar keng bayon etilgan.

Kalit so'z. psixologiya, ruhiy rivojlanish, diagnostika, korreksiya, surdopedagogika, muloqot, impressiv va ekspressiv nutq.

Annotation. In this article, the psychological problems, psychological correction and diagnosis of children with hearing impairment, as well as the peculiarities of external-internal speech and cognitive processes, information about the developmental characteristics of their personality are described in detail.

Keyword. psychology, mental development, diagnosis, correction, deaf pedagogy, communication, impressive and expressive speech.

Аннотация. В статье подробно изложены психологические проблемы, психологическая коррекция и диагностика детей с нарушением слуха, а также особенности внешне-внутренних речевых и познавательных процессов, сведения об особенностях развития их личности.

Ключевое слово. психология, психическое развитие, диагностика, коррекция, сурдопедагогика, коммуникация, импрессивная и выразительная речь.

Ruhiy rivojlanish bu – ruhiy jarayonlarning ma'lum qonuniyatlarga mos ravishda rivojlanishi bo'lib, u davriy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalarning rivojlanishi turlicha bo'lib, bunday turfalik har bir bolaning miyasidagi bo'limlarning rivojlanish davrlari va xususiyatiga bog'liqligidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra bolalarning ruhiy jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi har xil yoshida turli darajada bo'lishi kuzatiladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish:

- Kar va sog'lom bola ruhiy rivojlanishidagi umumiy va xususiy tomonlarini aniqlash;

- Kar bolalar bilish jarayonining alohida shakllarining rivojlanishidagi o'ziga xosligini o'rganish va aniqlash – sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq hamda uning shaxs sifatida shakllanish qonuniyatlarini o'rganish;

- Rivojlanishi nuqsonli bo'lgan bola shaxsining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan metodlar va yo'llarni psixologik jihatdan asoslab berish;

kabi eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limi orqali ularni barkamol tarbiyasini amalga oshirishga qaratilgan ishlar rejalashtiriladi.

Eshitish sezgisi va idroki ayniqsa nutqni egallashda muhim ro'l o'ynaydi. Nutqning aktiv va passiv shakllari aynan eshitish sezgisi va idroki asosida amalga oshadi. Atrofdagilar nutqini eshitib, unga taqlid qilish orqali asosiy ma'lumotlarni oladi, kattalar bilim va tajribalarini egallaydi. Chunki kattalarning bilimi, tajribalari bolalarga og'zaki yoki yozma nutq orqali kattalar tomonidan yetkaziladi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiyatini o'rganishda psixologiyaning asosiy va yordamchi metodlari qo'llaniladi. Asosiy metodlari turkumi kuzatish va psixologik eksperiment metodlarini qamrab oladi. Yordamchi metodlar faoliyat natijalarini tahlil qilish, test metodi, anketa metodlarini o'zida namoyon qiladi. Surdopsixologiyada kuzatish metodi hodisalarning keng doirasi munosabatiga ko'ra qo'llaniladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus psixologiyasida bu metod katta ahamiyatga egaligini ta'kidlash joizdir. Kuzatish predmeti faoliyatning tashqi komponentlari harakat, nutqiy akt, pantomima va mimikaning o'ziga xosligi, vegetiv reaksiyalarning yuzaga kelishi bo'lishi mumkin. Bunda bolalar xulqiga kuzatuvchi mavjudligi salbiy ta'sir ko'rsatishi, uning tabiiyligi buzilishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan holat amalga oshmasligi uchun (kino, video syomka) qayd etuvchi apparatni qo'llash yaxshi natija beradi. Xulosa va umumlashmalarga zaruriy material olish uchun bolalarning turli foliyatda o'yin, o'qish, uy vazifalarini bajarish, takrorlanuvchi, o'zgaruvchi sharoitlarda kuzatish maqsadga muvofiqdir.

Bola nutqiy rivojlanishining umumiy sharoitida kuzatilayotgan hodisalarning xususiy tomonlarini aniqlash imkoni yuzaga keladi.

Atrofdagilar nutqini idrok qilish imkoniyatining buzilishi faol nutqning shakllanish imkoniyatini yo'qotadi. Eshitishi buzilgan bola hech qachon o'zi mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi. Agar bunday bola maxsus sharoitda maxsus yondoshish va maxsus uslublar bilan o'qitilmasa soqov bo'lib qoladi. Eshitmaydigan bola butun axborotni eshitish apparati analizatorining ishtirokisiz oladi, u hamma narsalarni predmetlar, voqea va hodisalarni ko'rgani holda ular haqida hech qanday informatsiya olish imkoniyati yo'q. Bu esa o'z navbatida ikkilamchi nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Eshituvchi ona va kar bola muloqotini o'rganishda kuzatish metodini qo'llashga doir Amerika psixologlarining tadqiqotini keltirish mumkin. Kuzatish metodining amaliy ahamiyatini amerikalik olimlardan D. Plapinger va R. Kretchmerlar o'z ilmiy

ishlarida yoritib, eshitishda muammosi bo'lgan bolalar bilan onalarning muloqot shakli, muloqot uchun shart-sharoitlar (bolaning tashabbusi bilan, yoki onaning tashabbusi bilan yuzaga kelganligi) o'rganiladi. Ular 13 oy mobaynida turli sharoitda ona va bola o'zaro munosabatini video registratsiya yordamida kuzatganlar. Registratsiya turli holatlarda va kunlarda olib borilgan. Olimlar quyidagi ko'rsatkichlar bilan qiziqqanlar: kimning tashabbusi bo'yicha muloqotga kirishildi, nutqiy muloqot doirasi va xususiyatlari qay tarzda amalga oshdi (gap turi: so'rov, undov buyruq, hishayajon). Olimlar ba'zi sharoitardagi muloqotda ona tashabbuskor bo'lganini (kitob o'qish, kesma alifbo bilan ishlash) kuzatishgan. Bola tashabbuskor bo'lgan holatlarni ham (o'yinchoq o'ynash) kuzatganlar. Turli sharoitlarda muloqot miqdor va sifat jihatdan farqlangan holatlari namoyon bo'ldi.

Me'yorda, bola kattalar va atrofdagilar nutqini takror-taktor eshitib, ularga taqlid qilib, uni egallaydi. Eshitmaydigan bola ko'rgan narsalarining nomlarini va hodisalarni so'z orqali ifodalay olmaydi, munosabat bildiray olmaydi. Bunday holat bolani ruhiy jihatdan to'g'ri rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Karlikw tufayli bolada ikkilamchi nuqsonlar vujudga keladi: soqovlik, ruhiy rivojlanishining orqada qolishi va hokazo. Chunki bu ikkilamchi nuqsonlar eshitmaslik tufayli vujudga keladi, barcha psixik jarayon, tafakkur, xotira, idrok, diqqat va butun bilish jarayoniga ta'sir qiladi. Eshitishni korreksiyalash qanchalik erta tashkil qilinsa, nutqdagi kamchiliklar shunchalik erta to'g'rilanadi.

Eshitish buzilishlari bolalarda turli infeksiyon kasalliklar oqibatida yuzaga keladi. Meningit, skarlatina, otit, gripp kasalliklarini infeksiyon-yuqumli kasalliklar qatoriga kiritish mumkin. Eshitish buzilishlari ichki, o'rta va tashqi quloqlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va quloq nervi shikastlangan bo'lsa, ko'p holatlarda karlik, agar o'rta quloq shikastlangan bo'lsa, eshitish pasayishi kuzatiladi. Maktab davrida ovoz taassurotlarining yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyati pasayishiga olib kelishi mumkin.

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning asab tizimining faoliyatini egiluvchanligi tufayli ular kompensatorlik imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bunday bolalar atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishda qiynaladi, shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi, o'zligini anglashi sog'lom bolalardan farqlanadi.

Eshitishdagi buzilishning har qanday holatida ham axborotni qabul qilish, uni tahlil qilish va munosabat bildirish, uni saqlash imkoniyati mexanizmi qiyinlashgan yoki buzilgan bo'ladi. Barcha imkoniyati cheklangan bolalarda tushunchalarning shakllanish jarayoni sekinlashgan holda korreksiyalanadi, eshitmaydigan bolalarda bu jarayon vaqtinchalik sekinlashgan bo'ladi va o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'ladi. Eshitmaydigan bolaning rivojlanishida ikkita o'zaro bir-biriga bog'liq muhim holat kuzatiladi. Eshitmaydigan bolaga ta'sir etuvchi tashqi omil nihoyatda tor, tashqi muhit bilan muloqoti cheklangan, atrofdagilar bilan muomalada bo'lish imkoniyati

chegaralangan bo'ladi. Buning natijasida bunday bolalarning ruhiy jarayonlarining rivojlanishi nihoyatda oddiy tusda bo'lib, tashqi ta'sirlarga reaksiyasi soda, doimiy bir xillik kuzatiladi. Shu sababli eshitmaydigan bolalarning analizatorlar faoliyatida o'zaro bog'lanishlar sog'lom bolalardan farqlanadi va ularning o'z fikrini bayon qilish formalari farqli kechadi.

Masalan : ko'rgazmali – obrazli, so'z mantiqiy tafakkuri; yozma nutqning ikkala shakli impressiv (o'qish) va ekspressiv (yozma) shakllari og'zaki nutqdan ilgariroq rivojlanadi va ustunlik qiladi, katta rol o'ynaydi; nutqning impressiv shakli ekspressiv nutqdan ilgarilab rivojlanadi.

Ta'lim jarayonida aynan mana shu holatning inobatga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi bilan me'yordagi bolani ruhiy rivojlanishidagi farq asosan uning jadalligi va sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday bolaning ruhiy rivojlanishi uning analizatorlarining sog'lomligi, umumiy salomatligi, o'sayotgan muhitiga bog'liq.

Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishiga homiladorlikning noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol o'ynaydi (qizamiq, gripp) Eshitish buzilishi sabablari eshitish sezgilarini tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofi, ximik zaharlanish, tug'ish davridagi travmalar, mexanik travmalar, kuchli ovoz ta'sirlarining akustik ta'siri bo'lishi mumkin. Eshitishning buzilishi o'rta quloqning o'tkir shamollashi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Eshitishning qat'iy buzilishi burun va halqum (adenoid, xronik shamollash) kasalliklari natijasida ham kuzatiladi. Bu kasalliklar chaqaloqlik chog'ida jiddiy xavf soladi. Eshitish pasayishiga ta'sir qiluvchi omillar orasida ototopsik preparatlar asosan antibiotiklar muhim o'ringa egadir. Eshitish buzilishlari yuzaga kelishida kasbiy omillar ham katta ahamiyatga ega. Karlar oilasida eshituvchilar oilasiga qaraganda ko'p miqdorda kar bola tug'iladi. Shuningdek, yaqin qarindoshlar nikohida va er-xotin yoshi o'rtasida katta farq ham eshitish buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Aroqxo'r ota-onalar, kensok kasalligi, turli xromasomali kasalligi mavjud oilalar (uchuvchi va suvga sho'ng'uvchilanda ham eshitishida nuqsoni mavjud bolalar tug'ilishi kuzatiladi.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar ruhiy rivojlanish xususiyatlarini to'g'ri tushunish uchun ularga o'z vaqtida tashxis qo'yish, ta'lim-tarbiya muassasasini tanlash, bu jarayonni tashkil etishda bu bolalarning tasnifi muhim o'rin tutadi.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar psixik rivojlanishi qonuniyatlariga xos bo'ladi. Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar atrof-muhit bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar, ularda shaxs va o'z-o'zini anglashning rivojlanishi xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Turli buzilish, nuqsonlarga ega bolalarning ruhiy rivojlanishi tahlili, L. V. Vigotskiy ta'rifi bilan aytganda nuqson strukturasidan tuzilgan tahlildan kelib chiqadi. Birlamchi nuqson bu o'rinda eshitishning buzilishi ikkilamchi,

uchlamchi nuqsonlarga olib keladi. Ikkilamchi buzilishlar turli sabablarga ko'ra chaqaloqlik, maktabgacha bolgan davrda o'xshash holatda namoyon bo'ladi. Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo'ladi, funksional o'zaro munosabatlar strukturasi o'zgartiradi. Ikkilamchi nuqson qanchalik birinчисiga yaqin bo'lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkabdir. Masalan, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar talaffuz nuqsoni eshitish buzilishi bilan bog'liq bo'lib, uni korreksiyalash mushkul vazifadir, nutqning boshqa jihatlarini rivojlantirish hali eshitish buzilishi bilan u qadar yaqin aloqada emas, shu sababli ularni korreksiyalash birmuncha yengil kechadi. Ikkilamchi nuqsonlar eshitish buzilishidagi psixologo-pedagogik korreksiyaning asosiy obyekti hisoblanadi. Bola ruhiy rivojlanishi o'ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korreksiyalash lozimligi dalillandi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy tuzilishlarini bartaraf etish, uning birlamchi nuqsoni ikkilamchi va uchlamchi nuqsonni yuzaga keltirilganligi maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshadi.

Bolaga ilk yoshidan surdopedagogik yordam tashkil qilinib uning kompensatorlik imkoniyati rivojlantirilib borilsa bu farq katta bo'lmasligi mumkin. Bolaning imkoniyatini rivojlantiruvchi ta'sir va muhit qanchalik o'z vaqtida va izchillik bilan amalga oshirilsa farq shunchalik sezilmaydi. Aynan mana shu shart-sharoitlar eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limining mazmuni, davomiyligi va zaruriy tashkiliy formalarini belgilashda hisobga olinadi.

Bu bolalarining umumiy kamchiligining tarkibiy tuzilishi haqidagi tasavvurdan kelib chiqqan holda uni tahlil qilishda birinchi o'rinda ularning nutqini rivojlanish xususiyatida boshlash maqsadga muvofiqdir. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar dastlab nutqni bevosita emas balki, maxsus tashkillashtirilgan sharoitda alohida vositalar orqali, majburiy muloqot vositasi sifatida egallaydi. Bunda bolaning ruhiy rivojlanishini kechiktirmasligini ko'zlab nutqning qo'shimcha kompensator vositasi bo'lgan daktil va imo-ishora shaklidan foydalaniladi. Lekin to'g'ri tashkillashtirilgan pedagogik jarayon natijasida eshitishda muammolari bo'lgan bolalar ma'lum vaqtdan keyin bunda nutqiy imkoniyatdan qoniqmaydilar, natijada muloqotning yangi, to'liq nutqiy muloqot shakliga o'tiladi. Eshitishda muammolari bo'lgan bolalarning nutqiy muloqoti turli faoliyatlarda jarayonida shakllanib boradi. Ular bu davrda nutqning turli formalaridan (og'zaki, yozma) foydalanadilar va nutqning ikkala tomoni impressiv (nutqni ko'rib qabul qilish) va ekspressiv tomoni (gapirish, daktillab aytish, yozuv orqali fikr bildirish) dan foydalanadi.

Ta'lim jarayonida eshitish qobiliyati cheklangan bolaga har qanday o'quv materialini so'z bilan tushuntirish ba'zan qiyin kechadi. Multimediyada esa bolalarga kerakli ma'lumotlarni idrok etish osonlashadi. Bundan tashqari, ovoz balandligini o'zgartirishni osonlashtiradigan yangi axborot texnologiyalari, xususan, audio materiallarning muayyan chastotalarini o'zgartirish

orqali eshitish qoldiqlarini rivojlantirish mashqlarida ham foydalanish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar jalb qilingan har qaysi mashg'ulotlarga bolalarda qiziqish uyg'onib, ijobiy munosabatda bo'ladilar. Bu ularning motivatsiyasini oshirishga va bola uchun ham, pedagog uchun ham muhim bo'lgan natijalarga erishishda yordam beradi. Kompyuter ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi, yangicha ta'limni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib, bolaning individual xususiyatlariga moslashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M. Marschark, Harry G. Lang, John Albertini – Educating deaf students – Oxford University Press, 2006.
2. D. A. Nazarova, Z. N. Mamarajabova – Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). Darslik. – Toshkent: “Innovatsiya – ziyo”, 2020.
3. Mo'minova L. R. Maxsus psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2022.
4. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). Извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674.
5. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at. – Toshkent., 1998.